

BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARIDA KASBIY KOMPONENTLIKNI RIVOJLANTIRISH VA UNING TA'LIM JARAYONIDA AHAMIYATI

*Urametova Roza Shamdikelovna
Kegeyli tumani 9-sonli mактабning
Boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

Annotatsiya: Biz bu maqolada boshlang'ich sinf o'qituvchilari va ularning ish faoliyatida kasbiy komponentlikni rivojlantirish usullari haqida bayon qilamiz.

Kalit so'zlar: kompetentlik, kasbiy kompetentlik, shaxsiy tajriba, texnologiyalar, amaliy faoliyat, rivojlantirish.

Zamonaviy jamiyat ta'lif tizimi oldiga yuqori malakali, intiluvchan, raqobatbardosh, tashabbuskor, ma'naviy va jismoniy soqlom shaxslarni tarbiyalab berish talabini qo'yemoqda. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasida "yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash, oliy ta'lif muassasalarida kompetentli ilmiy pedagogik kadrlar zaqirasini yaratish" vazifasi belgilandi. Kompetentli pedagog - u kim? Uning shakllanish jarayoni qanday kechadi kabi savollar tug'iladi. Shu nuqtai nazardan "kompetentlik" va "kompetensiya" tushunchalar mazmun mohiyatini aniqlashimiz muhimdir. Har qanday o'qituvchi ham "kompetentlik" nimani anglatishini va u "kompetensiya" dan nimasi bilan farq qilishini bilavermaydi. "Kompetentlik" tushunchasi pedagogning ma'lumoti, ko'nikmasi, qobiliyati va tajribasini o'z ichiga oladi. Boshqacha aytganda, uning ma'lum bir ish turini bajarish qobiliyati hisoblanadi. Aslida, ikkala atama o'xshashdir.

O'qituvchining kasbiy tayyorgarligi va komponentlikni rivojlantirish ta'lif jarayoning ajralmas bir bo'lagi hisoblanadi. Shunki, Didaktik tayyorgarlikni takomillashtirish L. S. Podimova tomonidan o'quv jarayonini ilmiy asoslangan qurishning hal qiluvchi shartlaridan biri sifatida qaraladi va pedagogik mehnat unumdorligini oshiradigan usul sifatida ko'rildi. N. A. Shaydenko didaktik tayyorgarlikni o'qituvchining o'qitish funktsiyasini muvaffaqiyatli shakllantirish omili sifatida tahlil qiladi [2.89]. R. P. Skulskiy didaktik mashg'ulot deb ataydi va bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy tayyorlash va tarbiyalashning asosiy yo'nalishlari haqida ilmiy izlanishlarni olib boradi. V. G. Podzolkov didaktik tayyorgarlik haqida yozadi va uni o'qituvchi rivojlanishining asosiy komponenti sifatida qabul qiladi.

Agarda pedagogning kasbiy mahorat dasturiga amaliy qaralsa, u holda birinchi o'ringa uning integral sifati – o'qituvchining mahoratidan iborat bo'ladi. Pedagogik mahoratga berilgan ta'riflar shuncha ko'p bo'lishiga qaramay, ularda mahoratning qaysidir tomonlari albatta ifodalanadi.

Mahorat - bu yuqori va doimo yuksalib boruvchi tarbiya va o'qitish san'atidan iborat. Pedagog – o'z ishining ustasi, o'z fanini chuqur biluvchi, fan va san'atning mos sohalari bilan yaxshi tanish, amalda umumiy va yoshlar psixologiyasini yaxshi tushunuvchi, o'qitish va tarbiyalash metodikasini har tomonlama biluvchi hamda yuqori madaniyatga ega bo'lган mutaxassis. Pedagogik nazariyada o'qituvchi mahoratini ikki xil tushunish mavjud. Birinchisi, pedagogik mehnatni tushunish bilan bogliq bo'lsa, ikkinchisi tarbiyada pedagog shaxsi asosiy o'rinni tutadi.

Kompetensiya bilimlarning umumiyligi va ularning odamlarda mavjudligini anglatса, kompetentlik - bu bilimlarni ish jarayonida ishlatish darajasini anglatadi.

Kompetensiyalar ta'rifiga bir qancha yondashuvlar mavjud: - Amerikancha yondashuvda kompetensiyalar xodimlarning xulq-atvori namunasi sifatida ko'rib chiqiladi. Agar xodim zarur ko'nikma va bilimlarga ega bo'lsa, yaxshi natijalarni namoyish etadi. - Yevropacha yondashuvda kompetensiyalar ish vazifalari va kutilgan ish natijalarining tavsifi, ya'ni qabul qilingan standartlarga muvofiq harakat qilish qobiliyati sifatida ko'rildi. Vazirlar Maqkamasining 2017-yil 6-apreldagi 187-son qarori bilan tasdiqlangan Umumiy o'rta ta'limning Davlat Ta'lim Standartida kompetensiya tushunchasiga mavjud bilim, ko'nikma va malakalarni kundalik faoliyatda qo'llay olish qobiliyati sifatida ta'riflangan.

A.I.Uman didaktik tayyorgarlikni takomillashtirishni pedagogik ta'limning eng muhim vazifalaridan biri deb biladi [5.106]. T. A. Spirina didaktik ta'limni umumiy pedagogik tayyorgarlik tizimidagi asosiy mashg'ulot sifatida tavsiflaydi. Biroq, tadqiqotchilar uchun ukrainalik hamkasblari R. P. Skulskiy bundan mustasno va V. I. Grinev, o'qituvchining didaktik madaniyatini rivojlantirish muammosini didaktik tayyorgarlik jarayonida muammo sifatida qo'ymaydi va hal qilmaydi. Shunki bu ular uchun o'qish davrida o'zlashtirilishi kerak bolgan oddiy holat sifatida qabul qilinadi. [5.78]

Yurtimizda faol, intiluvchan, iqtidorli va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega, zamonaviy bilim hamda kasblarni chuqur egallagan - bugungi va ertangi kunimizning hal qiluvchi kuchi bo'lган yoshlarni voyaga yetkazish uchun barcha shart-sharoit va imkoniyatlar yaratilgan. Bugungi kunda fan va texnika rivoji ta'lim va uning natijalariga qo'yiladigan talablarni tubdan o'zgartirishni talab etmoqda. Shunga asosan, yangi avlod standartlarini yaratish pedagoglarning oldiga muhim vazifa qilib qo'yilmoqda. Hozirgi vaqtgacha yaratilgan davlat ta'lim standartlari tizimli-faoliyatli yondashuvga asoslangan, ya'ni ta'lim maskanlarining maqsadini bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish tarzida aniqlashtirishdan iborat edi. Shu bois yangi davlat ta'lim standartlarini o'z-o'zini rivojlantirishga qaratilgan kompetent-faoliyatli yondashuvga asoslanishdan kelib chiqqan holda belgilash talab etilmoqda.

Kompetensiya - lotincha «Competentia» so'z bo'lib, o'zbek tilidagi lug'aviy ma'nosi «inson yaxshi biladigan», «tajribaga ega bo'lган» kabi ma'nolarni bildiradi.

Kompetentlik - biron bir ishni samarali qila olish qobiliyati, ishni bajarishda talablarni qondira olish qobiliyati, aniq ishchi funksiyalarni bajarishda talablarni qondira olish qobiliyati [2.89].

Kasbiy kompetentlik - mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo'llay olinishidir [5.61].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Семина Е.А. (2010). Компетентностная модель выпускника педагогического вуза - будущего учителя математики. Альманах современной науки и образования. - № 5 (36).
2. Muslimov N.A., Urazova M.B., Eshpulatov Sh.N. (2013). Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. - T.: Fan va texnologiya nashriyoti.
3. Гулбоев А. Т. АСПЕКТЫ И ОСОБЕННОСТИ ЦЕЛОСТНОГО ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ПРОЦЕССА //Вопросы науки и образования. – 2021. – №. 10 (135).
4. Гулбоев А. Т. Педагогик ташхис воситасида ўқитувчилар малакасини узлуксиз ошириш.. Педагогика. фан. ном. – 2010.
5. Гулбоев А. Т. Формирование профессиональных компетенций экономистов //Вестник науки и образования. – 2020. – №. 5-2 (83).